



«O'ZAGROSUG'URTA»
AKSIYADORLIK JAMIYATI

**AVTOTRANSPORT VOSITASIGA O'Rnatilgan gaz uskunasi dan
FOYDALANISH OQIBATIDA YUZ BERISHI MUMKIN BO'LGAN
QALTISLIKLARDAN SUG'URTALASH QOIDASI**

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur "Avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasi dan foydalanish oqibatida yuz berishi mumkin bo'lgan qaltisliklardan sug'urtalash qoidasi" (bundan keyin matn bo'yicha - "Qoida" deb yuritiladi) sug'urta sohasini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga muvofiq hamda "O'zagrosug'urta" AJ bundan keyingi matn bo'yicha - "Sug'urtalovchi" deb yuritiladi)ning Ustaviga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslar (bundan keyingi matn bo'yicha - "Sug'urta qildiruvchi" deb yuritiladi)ning avtotransport vositalariga o'rnatilgan gaz uskunasi yo'l transport hodisasi (YTH), yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi hamda avtotransport vositalariga o'rnatilgan gaz uskunasi portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga yetkazilgan zararni qoplanishini ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan berilgan Litsenziyaga muvofiq 8, 13 - klasslarga oid sug'urta turi hisoblanadi.

1.2. Sug'urtalovchi ushbu qoida asosida Sug'urta qildiruvchiga beriladigan Sug'urta polisiga asosan unda nazarda tutilgan voqea (Sug'urta hodisasi), ya'ni avtotransport vositalariga o'rnatilgan gaz uskunasi yo'l transport hodisasi (YTH), yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi hamda avtotransport vositalariga o'rnatilgan gaz uskunasi portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga yetkazilgan zararni Sug'urta polisida kelishilgan summa (Sug'urta puli) doirasida to'lash (Sug'urta tovonini to'lash) majburiyatini oladi.

**II. QOIDADA ISHLATILADIGAN ASOSIY ATAMALAR
VA ULARNING TA'RIFI**

Atamalar	Ta'rif
Sug'urta polisi	Mazkur qoidani asosiy shartlarini o'z ichiga olgan va sug'urta javobgarligi kuchga kirganligini tasdiqlaydigan hujjat;
Sug'urta muddati	Sug'urta mukofoti o'z vaqtida to'langan holda, sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladigan davr;
Sug'urta qiymati	Avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasi sotuvdagi yoki baholovchi ekspert tomonidan baholangan haqiqiy bozor narxi;
Sug'urta puli	Sug'urtalovchining eng yuqori javobgarligi miqdorini belgilovchi va Sug'urta qiymatidan ortiq bo'lmagan summa;
Sug'urta mukofoti	Sug'urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxs tomonidan sug'urtalash uchun Sug'urta polisiga asosan Sug'urtalovchiga to'laydigan pul mablag'i;
Sug'urta hodisasi	Avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasi yo'l transport hodisasi (YTH), yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi hamda avtotransport vositalariga o'rnatilgan gaz uskunasi portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga zarar yetkazilishi;
Franshiza (shartsiz)	Sug'urta qildiruvchi ko'rgan zararining Sug'urtalovchi tomonidan har bir sug'urta hodisasi bo'yicha qoplanmaydigan qismi;



Sug'urta tovon	Sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta puli doirasida Sug'urta qildiruvchiga, uchinchi shaxsga yoki ularning qonuniy merosxo'rlariga to'lanadigan pul mablag'i;
Fors-major	Sug'urta polisi va mazkur qoida shartlari to'liq yoki qisman bajarilmay qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan favqulotda, aqliy tadbirlar bilan oldini olib bo'lmaydigan, Sug'urta polisi tomonlarining xohish irodasiga bog'liq bo'lmagan holat.

III. SUG'URTA SUBYEKTLARI

Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi va uchinchi shaxslar sug'urta subyektlari hisoblanadilar.

IV. SUG'URTA OBYEKTUARI

Sug'urta obyektu bo'lib Sug'urta qildiruvchining avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasinu yo'l transport hodisasi (YTH), yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi hamda avtotransport vositalariga o'rnatilgan gaz uskunasinu portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga yetkazilgan zararnu qoplanishi bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga zid bo'lmagan mulkiy manfaatlaru hisoblanadi.

V. SUG'URTA SHARTNOMASINI TUZISH VA UNING AMAL QILISH MUDDATI

5.1. Mazkur qoidanu asosiy shartlarinu o'z ichiga olgan yozma ravishdagi Arizasiga (1-ilovala) asosan va Sug'urta shartnomasi (2-ilovala)ga muvofiq bir yildan kam bo'lmagan muddatga Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urta shartnomasi/polisida (3-ilovala) belgilangan Sug'urta mukofotu to'langanidan so'ng, Sug'urtalovchi yoki uning vakili tomonidan sug'urta polisi beriladi.

5.2. Sug'urta polisi bo'yicha Sug'urtalovchining majburiyatlari Sug'urta polisida belgilangan Sug'urta mukofotu Sug'urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgan kunning ertasi kuni soat 00-00 dan boshlab kuchga kiradi va Sug'urta polisi tugaydigan kuni soat 24-00 da tugaydi.

5.3. Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urta shartnomasi/polisida belgilangan miqdorda Sug'urta mukofotu to'lanmasa, Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta polisi berilmaydi va Sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kirmaydi.

5.4. Sug'urtalovchi sug'urta mukofotu to'langanligu haqidagi tasdiqnu olgandan so'ng, sug'urtalovchining axborot tizimi avtomatik ravishda sug'urta polisini rasmiylashtiradi. Elektron sug'urta polisi ma'lumotlaru va sug'urta polisini yuklab olish havolasi sug'urta qildiruvchining elektron pochta manziliga yoki telefon raqamiga SMS orqali yuboriladi.

5.5. Sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda Sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchining rasmiy veb saytu yoki tarkibiy hududiy filial va sug'urta markazlariga murojaat qilishi orqali mazkur sug'urta polisini nusxasini olishu mumkin.

5.6. Sug'urta polisining amal qilishi tomonlarning yozma xabarnomalariga asosan har qanday holatda tugatilishi mumkin. Bunda xabarnoma beruvchi tomonlarnu Sug'urta polisi bekor bo'lishidan 30 (o'ttiz) kun oldin yozma ravishda xabardor qilishi shart.

VI. SUG'URTA PULI VA SUG'URTA MUKOFOTI

6.1. Avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasinu yo'l transport hodisasi (YTH), yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi bo'yicha Sug'urta pulu Sug'urta



qiymatidan oshmagan miqdorda, milliy valyuta – soʻmda, Sugʻurtalovchi va Sugʻurta qildiruvchining kelishuviga muvofiq belgilanadi.

6.2. Avtotransport vositalariga oʻrnatilgan gaz uskunasini portlashi yoki yongʻin chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga yetkazilgan zararni qoplash boʻyicha Sugʻurta puli, milliy valyuta – soʻmda, Sugʻurtalovchi va Sugʻurta qildiruvchining kelishuviga muvofiq belgilanadi.

6.3. Avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasini yoʻl transport hodisasi (YTH), yongʻin va portlash natijasida yoʻqotilishi yoki zararlanishi hamda avtotransport vositalariga oʻrnatilgan gaz uskunasini portlashi yoki yongʻin chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga yetkazilgan zararni qoplanishi boʻyicha Sugʻurta mukofoti, Sugʻurtalovchining qarori bilan tasdiqlanadigan sugʻurta tarifiga muvofiq hisoblanadi.

6.4. Sugʻurta qildiruvchi oʻzining hoxishiga koʻra, avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasini yoʻl transport hodisasi (YTH), yongʻin va portlash natijasida yoʻqotilishi yoki zararlanishi hamda avtotransport vositalariga oʻrnatilgan gaz uskunasini portlashi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga yetkazilgan zararni qoplanishi boʻyicha sugʻurta qilinishi yoki faqat avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasini yoʻl transport hodisasi (YTH), yongʻin va portlash natijasida yoʻqotilishi yoki zararlanishi boʻyicha sugʻurta qilinishi, yohud faqat avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasini portlashi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga yetkazilgan zararni qoplash boʻyicha sugʻurta qilinishi mumkin.

6.5. Sugʻurta mukofotining Sugʻurtalovchi hisob raqamiga kelib tushgan kuni sugʻurta mukofotining toʻlangan kuni hisoblanadi.

VII. SUGʻURTA HODISASI

7.1. Mazkur qoidaga muvofiq:

-avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasini yoʻl transport hodisasi (YTH), yongʻin va portlash natijasida yoʻqotilishi yoki zararlanishi hamda, avtotransport vositalariga oʻrnatilgan gaz uskunasini portlashi yoki yongʻin chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga zarar yetkazilishi Sugʻurta hodisasi hisoblanadi.

7.2. Quyidagi holatlarda avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasini yoʻl transport hodisasi (YTH), yongʻin va portlash natijasida yoʻqotilishi yoki zararlanishi sugʻurta hodisasi deb tan olinmaydi va sugʻurta toʻloni toʻlanmaydi:

a) haydovchi oʻzining yoki uchinchi shaxslarning or-nomusi, hayoti va salomatligini saqlash, oʻz fuqarolik burchini bajarishga aloqador harakatlardan tashqari sugʻurta hodisasini keltirib chiqarish maqsadida qastdan qilgan harakatlari natijasida zararlanishi;

b) avtotransport vositasini spirtli ichimlik, toksik yoki narkotik moddalarni isteʼmol qilgan holda boshqarilishi natijasida avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasini zararlanishi;

d) avtomobil yoʻlidan turli hayvonlar chiqib qolishi, urib yuborilishi natijasida sodir boʻlgan YTH natijasida avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasini zararlanishi;

e) transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlarsiz, TVEFJMS qilmasdan boshqarish va xakozo;

f) avtotransport vositasidan foydalanishda uni ekspluatatsiya qilish, yongʻin havfsizligi, yonuvchi va portlovchi modda hamda predmetlarni tashish va saqlash qoidalarini buzilishi;

g) sugʻurtalangan gaz uskunasi oʻrnatilgan avtotransport vositasidan oʻquv-mashq, musobaqa yoki sinov maqsadlarida foydalanish;

h) avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasining alohida ehtiyot qismlarini doimiy taʼsir qiluvchi ekspluatatsiya omillari (tabiiy eskirish, chirish, sirtining buzilishi, yorilish, zanglash va hakazolar) natijasida zararlanishi, shuningdek, sugʻurta hodisasi yoki ob-havo taʼsiri natijasida tashqi koʻrinishining eskirishi va sifatining buzilishi;



i) avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasi alohida ehtiyot qismlarini doimiy taʼsir qiluvchi ekspluatatsiya omillari (tabiiy eskirish, chirish, sirtining buzilishi, yorilish, zanglash va hakazolar) natijasida zararlanishi, shuningdek, sugʻurta hodisasi yoki ob-havo taʼsiri natijasida tashqi koʻrinishining eskirishi va sifatining buzilishi;

j) sodir boʻlgan hodisa vakolatli organdan (IIB, YHXB, YXNB) da belgilangan tartibda roʻyhatdan oʻtkazilmagan boʻlsa;

k) sugʻurta hodisasi sodir boʻlishining aniq sabablari aniqlanmagan boʻlsa;

l) Sugʻurta qildiruvchi yoki uning ishonchli vakili tomonidan sugʻurta tovonini olish maqsadida berilgan maʼlumotlar yolgʻonligi aniqlansa;

m) Sugʻurta hodisasi Oʻzbekiston Respublikasi hududidan tashqarida roʻy bergan boʻlsa.

VIII. DAʼVOLARNI KOʻRIB CHIQISH TARTIBI

8.1. Avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasi yoʻqotilishi yoki zararlanishi yohud uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar holatida Sugʻurta tovonini Sugʻurtalovchi tomonidan Sugʻurta qildiruvchiga uning yozma ravishdagi arizasi va mazkur qoidaning 8.2-bandida koʻrsatilgan hujjatlar hamda Sugʻurtalovchi tomonidan tuzilgan sugʻurta hodisasi toʻgʻrisidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi.

8.2. Sugʻurta qildiruvchi oʻz arizasiga quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

8.2.1. Avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasi yoʻl transport hodisasi (YTH), yongʻin va portlash natijasida qisman zararlanganda:

a) sugʻurta polisi,

b) IIB YHXB maʼlumotnomasi, xulosasi (zarur holatlarda sudning qarori);

d) tegishli tartibdagi baholash tashkilotining avtotransport vositasiga oʻrnatilgan gaz uskunasi yetkazilgan xaqiqiy zarar, ehtiyot qismlari va materiallari roʻyxati hamda eskirish qiymati koʻrsatilgan kalkulyatsiyasi.

8.3. Avtotransport vositalariga oʻrnatilgan gaz uskunasi portlashi yoki yongʻin chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga zarar yetkazilishi holatida Sugʻurta tovonini Sugʻurtalovchi tomonidan Sugʻurta qildiruvchi va uchinchi shaxslarning yozma ravishdagi arizasi va mazkur qoidaning 8.4.-bandida koʻrsatilgan hujjatlar hamda Sugʻurtalovchi tomonidan tuzilgan sugʻurta hodisasi toʻgʻrisidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi.

Uchinchi shaxslarning mol-mulkiga zarar yetkazilganda Sugʻurta tovonini Sugʻurta pulining 35 foizi, hayoti yoki sogʻligʻiga zarar yetkazilganda Sugʻurta tovonini miqdori Sugʻurta pulining 65 foizi miqdorida amalga oshiriladi.

8.4. Sugʻurta qildiruvchi oʻz arizasiga quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

a) sugʻurta polisi;

b) IIB YXB maʼlumotnomasi, hulosasi (zarur holatlarda sudning qarori);

d) tegishli tartibdagi baholash tashkilotining uchinchi shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan xaqiqiy zarar, ehtiyot qismlari va materiallari roʻyxati hamda eskirish qiymati koʻrsatilgan kalkulyatsiyasi;

e) uchinchi shaxslarning hayotiga yoki sogʻligʻiga yetkazilgan zarar mavjudligini va miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar (tibbiyot muassasasidan maʼlumotnoma yoki hayot va sogʻlikka yetkazilgan zararni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, dalolatnoma yoki oʻlim toʻgʻrisidagi guvohnoma).

8.5. Uchinchi shaxslarning hayoti yoki sogʻligʻiga zarar yetkazilganda sugʻurta tovonini miqdori Jamiyat Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan “Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sugʻurta qilishning barcha turlaridan sugʻurta hodisasi natijasida tan jarohati olishi boʻyicha sugʻurta puli miqdorini aniqlash jadvali”ga asosan aniqlanadi.



8.6. Bir nechta jabrlanuvchining mol-mulki va hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganda har bir jabrlanuvchiga (uning merosxo'riga) tegadigan sug'urta tovonni miqdori har bir jabrlanuvchining mol-mulki va hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining darajasiga mutanosib ravishda, ushbu shartnomaning 8.3-bandida belgilangan summa doirasida aniqlanadi.

8.7. Bir nechta shaxslarning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganda har bir jabrlanuvchiga (uning merosxo'riga) tegadigan sug'urta tovonni miqdori har bir jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining darajasiga mutanosib ravishda aniqlanadi.

8.8. Hayotga, sog'liqqa va (yoki) mol-mulkka zarar yetkazilganligini tasdiqlovchi xujjat bo'yicha shubha paydo bo'lganda sug'urtalovchi xujjatda ko'rsatilgan axborotning tasdig'ini olish uchun ushbu xujjatni bergan muassasaga murojaat qilish xuquqiga ega.

8.9. Yuqoridagi hujjatlar taqdim etilgach, sodir bo'lgan sug'urta hodisasi xususiyatidan kelib chiqib, Sug'urtalovchi vakolatli tashkilotlardan hodisani to'liq tafsilotlari va ishtirokchilari to'g'risida, ushbu hodisani vakolatli tashkilotda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumotnoma, zarur bo'lganda, hodisa ishtirokchilari sud-tibbiyot ekspertizasi hulosasi, sud qarori va boshqa hujjatlar so'rovini amalga oshiradi.

8.10. Shu bilan birga, Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasi yuz berishi sabablari va holatlarini mustaqil o'rganishga, Sug'urta qildiruvchidan qo'shimcha hujjatlar (avtotransport vositasi texnik pasporti, haydovchi pasporti, haydovchilik guvohnomasi, boshqarish huquqini beruvchi ishonchnoma nus'halari, zararlangan avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasi fotosuratlarini va boshqalar)ni so'rashga haqli.

8.11. Sug'urtalovchi barcha hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran 15 (o'n besh) kalendar kun ichida sug'urta tovonini to'lash to'g'risida yoki uni to'lashni rad etish haqida qaror qabul qiladi.

8.12. Tegishli bayonnoma qaroriga ko'ra Sug'urta hodisasi tan olinganligini tasdiqlovchi dalolatnoma tuzilib imzolangan kundan boshlab Sug'urta qoplamasi 10 (o'n) kalendar kuni ichida Sug'urta qildiruvchiga to'lab beriladi.

8.13. Sug'urtalovchining Sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi qarori sodir bo'lgan Sug'urta hodisasi yuzasidan qo'zg'atilgan jinoyat ishi va boshlab yuborilgan sud jarayonlari tugatilgunigacha yohud Sug'urta qildiruvchining aybdorsizligi tan olingunigacha bo'lgan davrga kechiktirilishi mumkin.

IX. SUG'URTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH VA UNI TO'LASH TARTIBI

9.1. Sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxslar Sug'urta hodisasi haqida Sug'urtalovchiga 3 (uch) kun ichida yozma ravishda xabarnoma beradi.

9.2. Avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasi zararlanishi yoki avtotransport vositalariga o'rnatilgan gaz uskunasi portlashi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga zarar yetkazilishi bo'yicha Sug'urta tovonini to'lash tartibi:

9.2.1. Avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasi to'liq yo'qotilganda Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga Sug'urta tovonini avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasi sug'urtalangan Sug'urta puli doirasida to'laydi.

9.2.2. Uchinchi shaxslarning mol-mulkiga zarar yetkazilganda Sug'urta tovonini Sug'urta pulining 35 foizidan, xayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganda Sug'urta tovonini miqdori Sug'urta pulining 65 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

9.2.3. Sug'urta hodisasi, shuningdek, keltirilgan zararni isbotlash Sug'urta qildiruvchi zimmasiga yuklanadi.

9.2.4. Avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasi takomillashtirilishi yoki o'zgartirilishi, yangilanishi bilan bog'liq xarajatlar, Sug'urta qildiruvchi tomonidan zararni baholash ishlari uchun qilingan harajatlar Sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydi.



Avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasi eskirish qiymati tovar ko'rinishi va Sug'urta polisida kelishilgan franshiza miqdori har bir to'lanayotgan sug'urta to'voni miqdoridan chegirib qolinadi.

9.2.5. Sug'urta to'voni sug'urta qildiruvchi tomonidan tijorat bankida ochilgan hisob raqamiga pul mablag'ini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

9.3. Sug'urta hodisasi natijasida avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasi yetkazilgan zarar yoki portlashi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga zarar yetkazilishida Sug'urta to'vonining ma'lum qismi aybdor yoki boshqa shaxslar tomonidan qoplangan bo'lsa, Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta to'voni zararining qoplangan qismi miqdorida kamaytiriladi.

X. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

10.1. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- a) Sug'urta qildiruvchini sug'urta shartlari bilan tanishtirish;
- b) Sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofoti to'langandan so'ng sug'urta polisini berish;
- d) Sug'urta hodisasi ro'y bergach, mazkur qoidalarda o'rnatilgan tartib va muddatlarda da'voni o'rganib chiqish hamda Sug'urta to'vonini to'lashni amalga oshirish;
- e) Sug'urta to'vonini yoki sug'urta pulini to'lashni rad etish to'g'risidagi qaror sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) ular sug'urta to'vonini yoki sug'urta pulini to'lashni so'rab murojaat etganlaridan keyin 15 kundan kechiktirmay, rad etish sabablariing asoslantirilgan dalil-isbotlarini keltirgan holda xabar qilish;
- f) Sug'urta to'vonini to'lash Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchi bilan Sug'urta hodisasi tan olinganligi to'g'risidagi dalolatnomani imzolagandan so'ng 10 bank kuni muddatida to'lash;
- g) o'zining sohadagi faoliyati natijasida olingan Sug'urta qildiruvchi va uning mulkiy hamda moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatmaslik.

10.2. Sug'urtalovchining huquqlari:

- a) Sug'urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxslar Sug'urta to'voniga da'vo qilganda Sug'urta qildiruvchidan sug'urta polisida va mazkur qoidalarda ko'rsatilgan majburiyatlarining bajarilishini talab qilish.
- b) Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasi tuzilishidan avval Sug'urtalovchiga yolg'on ma'lumotlar berganligi aniqlansa, sug'urta shartnomasining haqiqiy emas deb tan olinishini va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida nazarda tutilgan oqibatlar qo'llanishini talab qilish;
- d) quyidagi holatlarda Sug'urta to'voni to'lashni rad etish:
 - agar Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida Sug'urtalovchini o'z vaqtida sababsiz xabardor qilmasa;
 - Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi sababi va hususiyatlarini aniqlash uchun zarur ma'lumot va hujjatlarni taqdim qilmaganda;
 - Sug'urta polisidan naf olish maqsadida yolg'on vosita va usullarni ishga solganda;
 - Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa, shuningdek, Sug'urtalovchi o'ziga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha xujjatlar va dalillarni Sug'urtalovchiga va barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishdan bosh tortganda.
- e) sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar to'g'risida xabardor qilinganda Sug'urta polisi shartlarini o'zgartirishni yoki qo'shimcha Sug'urta mukofotini to'lashni talab qilish;
- f) zarur hollarda avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasi yetkazilgan zararni ekspertiza tashkilotlarida qayta baholash va ular tomonidan berilgan hujjatlar (kalkulyatsiya, mutaxassis fikri, dalolatnoma va boshqalar) asosida sug'urta to'voni to'lash;

10.3. Sug'urta qildiruvchining/uchinchi shaxslarning majburiyatlari:



- a) Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi o'ziga ma'lum bo'lgandan so'ng 72 soatdan kechikmay Sug'urtalovchi uning vakilini bu haqda yozma ravishda xabardor qilish;
- b) Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini ko'rib chiqish uchun barcha hujjatlarni taqdim qilish;
- d) Sug'urta polisi tuzilayotganda o'ziga ma'lum bo'lgan va Sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini hamda uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug'urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlarni Sug'urtalovchiga xabar qilish;
- e) Sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lash;
- f) Sug'urta polisining amal qilish davrida Sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergan, o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, Sug'urtalovchiga darhol xabar qilish;
- g) Sug'urtalovchining rozilgisiz avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasi ehtiyot qismlarini bir-biridan ajratish va hych qanday ta'mirlash ishlarini boshlab yubormaslik. Haydovchi va yo'lovchi xavfsizligini ta'minlash yoki vakolatli tashkilotlar buyruq va farmoyishlarini bajarish uchun zaruriyat tug'ilgan holatlar bundan mustasno;
- h) avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasini ko'rikdan o'tkazish vaqti, kuni va joyini, zararlangan avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasini yoki uning qismlarini sotish yoki qayta ishlashga yoki metallolomga topshirishni Sug'urtalovchi bilan kelishib olish;
- i) Sug'urtalovchining yozma rozilgisiz to'lov kafolatlari yoki majburiyatlarini o'z zimmasiga olmaslik;
- j) avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz uskunasini yaroqli holatda saqlash bo'yicha doimo oldini olish choralarini o'tkazish.

10.4. Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

- a) Sug'urtalovchidan Sug'urta polisining to'liq amal qilish davrida sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar olish;
- b) Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda ushbu sug'urta bo'yicha Sug'urtalovchidan qabul qilgan o'z majburiyatlarini bajarishini talab qilish;
- d) mazkur sug'urta doirasidagi kelishmovchiliklarni muvofiqlashtirish uchun mustaqil ekspertni jalb qilish.

XI. NIZOLARNI KO'RISH TARTIBI

Sug'urta polisdan kelib chiqadigan Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi o'rtasidagi barcha nizolar o'zaro kelushuvga asosan, kelishish imkoniyati bo'lmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

XII. REGRESS

12.1. Sug'urta qildiruvchining Sug'urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida Sug'urta tovonini to'lagan Sug'urtalovchiga o'tadi.

12.2. Sug'urta qildiruvchi o'ziga o'tgan talab qilish huquqini zarur bo'lgan barcha hujjatlar va dalillarni Sug'urtalovchiga berishi hamda barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

12.3. Sug'urta qildiruvchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish Sug'urta qildiruvchining (uchinchi shaxslarning) aybi bilan mumkin bo'lmagan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki uning tegishli qismini to'lashdan ozod qilinadi va tovonning ortiqcha to'langan summasini qaytarishni talab qilishga haqli bo'ladi.

XIII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR



13.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda tomonlar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pora berish/olish, tijorat poraxo'rlik, mansab mavqeini suiste'mol qilish, shuningdek huquqni buzuvchi harakatlarni amalga oshirmaslik, jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va boshqa korrupsiya huquqbuzarliklariga qarshi kurashish bo'yicha qonunlar, xalqaro standartlar va xalqaro shartnomalar talablarini buzmaslik majburiyatini oladilar.

13.2. Taraflar, mazkur shartnoma kuchga kirgan paytdan boshlab, ularning affilangan (o'zaro bog'liq) vakillari, xodimlari, ularning nazorati ostida yoki ta'sir ko'rsatadigan boshqa shaxslar tomonidan kelajakda, ushbu shartnomani tuzish hamda bajarish bilan bog'liq har qanday turdagi noqonuniy pul va boshqa imtiyozlarni taklif, talab qilmasliklarini, shuningdek, qabul qilmasliklarini kafolatlaydilar.

13.3. Agar Tomonlardan biri ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilinsa, tegishli Tomon boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Tegishli Tomon yozma ravishda xabardor qilingan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni buzilish sodir bo'lmagani yoki bo'lmasligi tasdiqlanmaguncha to'xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiqlash yozma xabar yuborilgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida yuborilishi kerak.

13.4. Yozma bildirishnomada Tomon kontragent, uning filali, xodimlari yoki vositachilari tomonidan amaldagi qonun hujjatlarida pora berish yoki olish, tijorat poraxo'rlik, shuningdek jinoyatdan olingan daromadni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi qonunlar va xalqaro hujjatlar talablarini buzuvchi harakatlar sodir etishda hamda har qanday qoidalarining buzulishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lganligi ishonchli tasdiqlaydigan yoki taxmin qilish uchun asos beradigan faktlarga murojaat qilishi yoki materiallar taqdim etishi shart.

13.5. Agarda yuqorida keltirilgan talablar bajarilmasa, shu jumladan Tomonlar tomonidan qabul qilingan korrupsion xatarlar bartaraf etish yoki kamaytirishga olib kelinmagan bo'lsa, boshqa Tomon shartnomani bekor qilishga yoki shartnomani to'xtatib turishga haqli. Ushbu Shartnoma Korrupsiyaga qarshi qurash to'g'risidagi bandga muvofiq tashabbusi bilan bekor qilingan Tomon bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

XIV. QOIDANING AMAL QILISH TARTIBI

14.1. Mazkur qoida "O'zagrosug'urta" AJ Boshqaruvi bayonnomasi qarori bilan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi.

14.2. Mazkur qoidaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish "O'zagrosug'urta" AJ Boshqaruvi bayonnomasi qarori bilan amalga oshiriladi.